

**LABGULDOSHLAR OILASIGA MANSUB BOZULBANG (LAGOCHILUS L.)
TURKUMI VAKILLARINING XALQA TABOBATIDA QO'LLANILISHI**

Sayramov Fayzullo Baraʼton o'g'li
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Hozirgi kunda an'anaviy tibbiyot (xalq tabobati) xalq zakovati bilan sug'orilgan juda boy va ulkan tajriba bilimlar majmuasidir. U ilmiy (rasmiy) tibbiyotni yangi, samarali dorivor preparatlar bilan boyituvchi bitmas tuganmas manbadir. Xalq tabobatining bu soxadagi qimmat, tutgan o'rni bebahodir.*

Kalit so'zlar: *labguldoshlar, bozulbang, xalq tabobati, sarxush bozulbang, proskoryakov bozulbangi.*

Sarxush bozulbang (*L. inebrians* Bunge). Yarim buta, balandligi 24–60 sm, o'q ildizli, sharsimon shakl beruvchi ko'p sonli tik turuvchi, oddiy yoki shoxlangan tikanli poyalardan iborat. Barglari qarama-qarshi, keng tuxumsimon, uchga, beshga bo'lingan, ko'p sonli tukchalari va bezli tukchalari bor. Gullari 4–6 ta dan qo'ltig'dan chiqqan yarim xalqada, uzun boshosqimon to'pgulda to'plangan. Kosachabarglari qo'ng'iroqsimon, voronkosimon kengaygan, 5 ta egilgan tikanli tishlarga ega, gultojibarglari pushti, ikki labli, yuqori labda uzun tik turuvchi tukchalari bor. Mevasi senobiy (bo'linadigan meva), uzunligi 3–4 mm bo'lgan, silliq sarg'ish-kulrang 4 ta yong'oqchadan iborat. May-iyulda gullaydi, urug'lar avgust-sentabrda pishadi.

Tarqalishi va ekologiyasi. Bozulbang O'zbekistonning Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlarining tog' oldi adirlarining shag'alli qiyaliklarida o'sadi. Uning maydoni juda cheklangan. XX asrning 80-yillarida uning haddan tashqari xomashyosi yig'ilganligi tufayli tabiiy senopopulyatsiyalari deyarli yo'q qilingan. Tur O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan (2019). Gullash davrida o'rilgan o'ti xomashyo hisoblanadi. Quritish. Soyada siyrakroq qatlam qilib yoyib, 5–6 kun davomida har kuni aylantirib quritiladi. Keyin ular maydalanadi, poyalardan va aralashmalardan tozalanadi.

Tashqi belgilar. Tibbiyotda o'simlikning barglari va gullaridan foydalaniladi. Xomashyoning asosiy qismi kosachabarglardan iborat. Barglari maydalangan, kulrang-yashil rangga ega, ikkala tomoni ham tuklangan, hidi kuchsiz, xomashyoni ishqalashda kuchayadi, ta'mi achchiq. Namlik miqdori 13% dan, umumiy kul miqdori 11% dan, o'simlikning boshqa organlari 3% dan, teshiklari diametri 1 mm bo'lgan elakdan o'tgan ezilgan qismlar 2% dan, organik aralashmalar 1% dan, mineral aralashmalar 1% dan oshmasligi kerak. Xomashyo tarkibida lagoxilin miqdori kamida 0,5% bo'lishi kerak.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning gullari va barglarida to'rt atomli spirt bo'lgan lagoxilin mavjud. Barglarda, shuningdek, efir moyi (0,03%), taninlar (11–14%), shakar, organik kislotalar, askorbin kislotasi, karotin, K vitamini, mikroelementlari, kalsiy tuzlari, ildizlarda – taninlar va shakar mavjud. Saqlash. Quruq xonada tokchalarda saqlanadi.

Farmakologik xususiyatlari. Bozulbang preparatlari har xil farmakologik faollikka ega. Bozulbangni farmakologik o'rganish dastlab Samarqand tibbiyot institutining farmakologiya kafedrasida olib borilgan. Bozulbangning gullari va barglaridan qaynatma, damlamasi va

nastoykasi qon ivishini tezlashtiradi. Bozulbangning suv ekstraktlari gipotenziv va tinchlantiruvchi faollikka, strixnin, kofein, korazol, kamfora, arekolin va nikotin ta'sirida yuzaga keladigan eksperimental tortishishlarda tortishishga qarshi xususiyatlariga ega, teri retseptorlari qo'zg'aluvchanligini pasaytiradi va dengiz cho'chqalarida og'riq sezgirligini kamaytiradi. Bozulbang preparatlari hissiyotni pasaytiruvchi adaptogen xususiyatga ega. Ular ko'z ichi bosimini pasaytiradi, ko'rish keskinligini va rang idrokini oshiradi. Bozulbang preparatlari me'da shirasining ovqat hazm qilish qobiliyatini, umumiy va erkin kislotaliligini oshiradi. Karbaxolin sabab ro'y bergan spazmda bozulbang damlamasining og'riq qoldiruvchi ta'siri qayd etilgan. Bozulbangning terapevtik dozalarda damlamasi va nastoykasi toksik ta'sirga ega emas, kumulyativ xususiyati ham yo'q; nastoykasini ta'siri og'iz orqali qabul qilinganda 20–30 daqiqadan so'ng, damlamasini esa bir necha soatdan keyin paydo bo'ladi. Dorivor vositalar. Bozulbang qaynatma, damlama, nastoykasi va ekstraktining tabletkalari. Tibbiyot qo'llanilishi. Bozulbang kelib chiqishi turli xil (klimaks oldi, yuvenil, bachadon fibromatozi, jarohat, bavoasil, o'pka, burun va boshqalar sababli) qon ketishida, shuningdek, operatsiyadan oldidan qon ketishining oldini olish, tish oldirish, ko'p miqdorda og'ir hayz ko'rishdan oldin, gemofiliya, Vergolf kasalligi, Shenleyn-Genox kasalliklari va boshqa gemorragik diatezida yordamchi vositasifatida ishlatiladi. Gemofiliya bilan og'riqan bemorlarda bozulbang preparatlari ta'sirida qon ketishi kamayishi, bo'g'imlarda va teri osti to'qimalarida gematomalar tezroq so'rilishi, qonda antigemofil gamma globulinlari miqdori oshishi kuzatilgan. Gemofiliyada bozulbang preparatlari ichga qabul qilinadi va tashqariga ham qo'llaniladi. Bozulbang damlamasi bilan doka namlanadi va ular qon ketadigan to'qimalarga qo'yiladi. Glaukomada bozulbang damlamasi ichish uchun buyuriladi. Shuningdek, u revmatizm bilan og'riqan bemorlarni kapillyar o'tkazuvchanligini kamaytirish va salitsilatlarining gipokoagulyasion ta'sirini kamaytirish uchun hamda hssiyotni pasaytiruvchi vosita sifatida kompleks davolashda ishlatiladi. Bozulbang preparatlari yuqori harorat va kuchli quyosh nurlanishi sharoitlarida insonning ish qobiliyatini va chidamliligini oshiradi. Markaziy asab tizimining funksional kasalliklari bo'lgan bemorlarda bozulbang preparatlarini qo'llashda ijobiy natijalarga erishilgan. Klinik sog'ayishning asosi preparatning tinchlantiruvchi ta'siri hisoblanadi, natijada uyqu yaxshilanadi, ta'sirchan qo'zg'aluvchanlik, yig'loqilik va boshqa alomatlar yo'qoladi. Bolalardagi ekssudativ diatezda bozulbang damlamasi ichga qabul qilinadi, shuningdek, 0,1–0,5% damlamali vannalar boshqa dorivor preparatlar bilan birgalikda ishlatiladi.

Ekzema va qizil yassi lishay bilan og'riqan bemorlarda bozulbang bilan davolashning ijobiy natijalari ham qayd etilgan. Damlama (1:20) 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta buyuriladi. Davolash kursining davomiyligi 1,5–2 oyni tashkil qiladi. Bozulbang damlamasi o'simlik barglaridan 1:10 yoki 1:20 nisbatda tayyorlanadi. Barglar 5 mm dan ko'p bo'lmagan zarracha kattaligida eziladi, ustiga xona haroratidagi suv quyiladi, qaynayotgan suv hammomiga qo'yiladi, 15 daqiqa davomida tez-tez aralashtirib isitiladi, xona haroratida 45 minut sovutiladi. Tinchlantiruvchi vosita sifatida damlama kattalarga kuniga 3–6 marta 1 osh qoshiqdan buyuriladi. Damlama dozasi kasallikka qarab o'zgaradi. Surunkali qon ketish va ginekologik operatsiyalardan so'ng qon yo'qotilishining oldini olish uchun kuniga 3–5 marta 2 osh qoshiq damlamadan ichiladi. Gemorragik diatez uchun damlamadan kuniga 3–5 marta 1/2 stakandan ichish tavsiya etiladi. Mahalliy foydalanish uchun aseptika qoidalariga rioya qilgan holda 1:10

nisbatda damlama tayyorlanadi. Bozulbang nastoykasi – o‘tkir ta‘mga ega tiniq aromatik suyuqlik. Bozulbang barglaridan 70% li spirtida tayyorlanadi. 1 choy qoshiqdan kuniga 3 marta 1/4 stakan suv bilan qo‘shib ichiladi. Xavfli qon ketishni to‘xtatish uchun – har 2 soatda 1/4 stakan suvga 1–2 choy qoshiq nastoyka solib ichiladi. Qon ketishining kamayganda nastoykaning kunlik dozasi kamaytiriladi. Gemorragik diatezda kuniga 5 marta 3 choy qoshiqdan qabul qilish uchun buyuriladi. 50 ml shisha flakon idishlarda chiqariladi.

Proskoryakov bozulbangi (*L. proskorjakovii* Ikramov). Nurota tizmasi uchun o‘ta kamyob endemik tur. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan.

Qisqacha tavsifi. Yarim butacha, bo‘yi 20–35 sm. Poyalari oddiy yoki shoxlangan, siyrak, qisqa tukli. Barglari mayda, keng tuxumsimon, 3–5 bo‘lmali, asosi ponasimon, tarvaqalaygan tukli, uzun bandli. Gullari 4–6 tadan shoxlarining uchidagi barglarning qo‘ltiqlarida yarim xalqa bo‘lib o‘rnashgan. Gulyonbargchalarining uchi o‘tkir, uchburchak bigizsimon, tashqariga qarab sal egilgan. Kosachasi 10–15 mm uzunlikda, tor qo‘ng‘iroqsimon, voronkasimon kengaygan, qaytaqisi keng qo‘ng‘iroqsimon, tishchasi tekis joylashgan, keng uchburchaksimon, tashqarisiga sal egilgan, qisqa xamda bezchali tuklar bilan qoplangan. Gultoji pushti. Iyun-iyulda gullab, mevasi iyul-avgustda yetiladi.

Tarqalishi. Nurota tizmasida tarqalgan (Jizzax va Samarqand viloyatlari).

O‘sinh sharoiti. Tog‘larning o‘rta qismidagi quruq, tosh-chag‘irtoshli yonbag‘irlarda o‘sadi.

Soni. Juda kam tarqalgan, yakka-yakka holda o‘sadi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Aniqlanmagan. Sharoitning noqulayligidan kam uchrasa kerak.

Madaniylashtirilishi. Ma‘lumotlar yo‘q. Muhofaza choralari. Nurota davlat qo‘riqxonasida muhofaza qilinadi. O‘simlik populyatsiyalarini aniqlash va xaritalash, tabiiyva madaniy sharoitda uning bioekologik xususiyatlarini o‘rganish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qollaniladigan shifobaxsh osimliklar. Toshkent, 1993.
2. Kursanov A. I. vaboshqalar. Botanika 2-tom –Toshkent, 1963.
3. Mustafoyev S.M. Botanika –Toshkent, 2002.
4. Nabiyev M. Botanika atlas-lug‘ati. –Toshkent, 1969.
5. Xoliqov S.X. va boshqalar. Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan o‘simlik va hayvonlari.
6. Oripov R.O, Xalilov N.X. Osimlikshunoslik –Toshkent, 2007.
7. Prator O.P., Nabiyev M.M. Ozbekiston yuksak o‘simliklarning zamonaviy tizimi Toshkent, 2007.
8. Xamidov G. O‘zbekistonning foydali o‘simliklarini muxofaza etish –Toshkent, 1990.
9. Xoliqov S, Prator O. O‘simliklar aniqlagichi –Toshkent, 1970.
10. Xolmatov X.X. va boshqalar. O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari –Toshkent, 1991.

11. V.Maxmudov, A.Maxmudov. Dorivor o'simliklar flora va sistematikasi. Toshkent. "Fan" nashriyoti, 2022.
12. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'gli, S. F. (2022). LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 472-479.
13. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEAE OILASINING EFIR MOYIGA BOY BO'LGAN BAZI TURLARINING MORFOLOGIYASI. Scientific Impulse, 1(2), 692-695.
14. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'gli, S. F. (2022). NATURAL MEDICINAL HERBS OF THE LAMIACEAE FAMILY AND THEIR MEDICAL PROPERTIES. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 5(4), 64-68.
15. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'gli, S. F. (2022). FEATURES OF THE GENUS LAMIACEAE FAMILY, WHICH WE KNOW AND DO NOT KNOW ABOUT. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 87-90.